

**IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA
QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI TAHLILI.**

Ibragimov. A.T.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda Respublikamizda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida bir qancha kompleks va uzoq muddatga mo'ljallangan tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga baho berishda unda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslar, intellektual salohiyat va ushbu salohiyatdan amalda nechog'lik darajada foydalanayotganligi, mintaqaning resurs salohiyatidan texnik va texnologik jihatdan foydalanish imkoniyatlari va mavjud resurslarning ko'lamidan kelib chiqib, investitsion dasturlarning ishlab chiqilishi va boshqa bir qancha omillarning inobatga olinishi asosiy o'rinn tutadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, intellektual salohiyat, resurs, Investitsiya, iste'moldagi cheklov, iste'molchi tanlovi, texnika va texnologiyalarni yangilash.

Milliy taraqqiyotning mantiqiy bosqichi – mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish davri izchil davom etmoqda. O'zbekiston jahon xaritasidan mustaqil davlat sifatida joy olgandan keyingi tarixan qisqa davr ichida demokratik jamiyat hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida ahamiyatli ishlar amalga oshirildi va salmoqli natijalar qo'fga kiritildi. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan rivojlanish strategiyasi puxta ishlab chiqilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llari aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuqlar salmoqli va marralar yuksak bo'lishiga imkon yaratdi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhiti yaratilgani asosiy omil bo'lmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yildan yilga investitsiya hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tiklanish va Taraqqiyot Fondining strategik muhim loyihalarni mustaqil ravishda hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan bирgalikda moliyalashtirish borasidagi roli ortib bormoqda. O'tgan yillarda ushbu fondning qariyb 330 million dollar miqdoridagi mablag'i o'zlashtirildi. Bu 2018 yildagiga nisbatan 25,6 foizga ko'pdil. O'tgan davrda Fond mablag'lari hisobidan 14 ta yirik investitsiya loyihasi moliyalashtirildi. O'zbekiston Ummon qo'shma investitsiya

kompaniyasi ishtirokida to‘qimachilik, telekommunikatsiya tarmoqlari va moliya sektorida umumiyligi qiymati qariyb 80 million AQSh dollariga teng bo‘lgan 3 ta investitsiya loyihasini moliyalashtirish ishlari boshlandi.

So‘nggi besh yillik davr oralig‘ida har bir yil uchun alohida tasdiqlanuvchi Investitsiya dasturlari doirasida 700 dan ortiq loyihani amalga oshirish va ular doirasida 6,3 mlrd. AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarini jalb etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, amalda jalb qilingan investitsiyalar hajmi 7,75 mlrd. AQSh dollarini yoki reja ko‘rsatkichlariga nisbatan 100,9 foizni tashkil etdi.

Shu jumladan, hukumat kafolati ostidagi loyihalarda jami 1,59 mlrd. AQSh dollari (yoki jalb qilingan umumiyligi investitsiyalar hajmining 20,5 foizi) miqdoridagi kreditlar jalb etilgan bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 500 dan ortiq loyihada investitsiyalar hajmi 6,16 mlrd. AQSh dollarini (yoki jalb qilingan umumiyligi investitsiyalar hajmida 79,5 foizni) tashkil etdi.

Investitsiyalar hajmini kengaytirishni rag‘batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat so‘nggi besh yillik yakunlarida jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 4,6 barobarga oshishiga zamin yaratdi.

Eng muhimi, o‘zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo‘naltirilganligidir.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida investitsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyati, sifat tavsiflari, surf qilish ob’ektlari, maqsadlari, manbalari, ularga erishish va jalb qilish usullari, kapital qiymatini saqlash va ko‘paytirish xatarlari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqalar, investitsiyalash ob’ektlari va sub’ektlari, yo‘nalishlari shakllari, muddatlari va darajalari o‘rtalaridagi o‘zaro uzviy bog‘liqliklar orqali ochib berilmog‘i lozim. Shu nuqtai nazardan ham, investitsion faollikda, investitsiyalarini avvalambor, ularning keng qamrovli iqtisodiy mohiyatini aniqlash hamda ilmiy qarashlarni atroflicha tanqidiy tahlil qilgan holda o‘rganish muhim.

O‘zbekistonda yaratilgan investitsiya muhiti iqtisodiyotning yanada rivojlanishi va barqaror turmush darajasini ta’minlashdan tashqari Respublika chet el kapitallarini jalb qilish uchun raqobat qilishiga ham imkon beradi. Yirik investitsiya loyihamalarini amalga oshirishda nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilot va institutlarning ishtirok etishi Respublikadagi investitsiya muhitining jalb etuvchanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, mamlakatda yaratilgan investitsiya muhiti va ustuvor yo‘nalishlar iqtisodiyotni sifat jihatdan yuqori darajaga chiqarish, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash, yuqori turmush sharoitlarini yaratish va Respublikani jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda investitsiya jarayonlarini va investitsiya faolligini oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish bo‘yicha qator ibratli tadbirlar amalga oshiriladi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- kredit va soliq imtiyozlari orqali tarmoqlar, sohalar va alohida korxonalarni kapital mablag‘lar bilan ta’minlashni rag‘batlantirish;
- ishlab chiqarish quvvatlarini to‘liq ishga tushirish uchun investitsiya jarayonlarini ma’muriy tomondan qo’llab-quvvatlash va hokazo.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy islohotlar ijobjiy natijalar bermoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, bank-moliya tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash, aholi daromadlarining o‘sishini ta’minlash va boshqa bir qator jabhalarda ahamiyatli yutuqlar qo’lga kiritildi.

Qulay investitsiya sharoitini yuzaga keltirishga qaratilgan davlat investitsiya siyosati so‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar, birinchi navbatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi o‘sib boruvchi tendensiya hosil qilishini hamda iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida birdek taqsimlanishini ta’minlamoqda.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturini amalga oshirish yakunlari shuni ko‘rsatadi, mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy kapital miqdori so‘nggi yillarda jadal sur’atlar bilan oshib bormoqda. Bunda eng e’tiborli jihat – jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar tashkil etib, hukumat kafolati ostidagi kreditlar hajmi keskin kamayib borayotganligidadir.

Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar jalb etish avvalo tabiiy iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, ekologik, ishlab chiqarish va boshqa sharoitlariga bog‘liq. Investitsiya har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishda investitsiyalarning ta’siri quyidagilarda o‘z aksini topadi: yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish asosida, sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi eskirgan vositalardan voz kechish imkoniyati tug‘iladi va chet elning ilg‘or innovatsiyalarini joriy qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, yangi ish joylari tashkil qilinadi hamda aholining ish bilan bandligi ta’milanadi, mehnat unumдорligi oshadi. Jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqariladi va ularni eksport qilish evaziga valyuta daromadlarining barqarorligi ta’milanadi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy o‘sishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko‘ra, iqtisodiyotni rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi. Keyingi yillarda iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi faqat oshib bormoqda. Bu esa iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biridir. Investitsiyalarning

iqtisodiyotga ta'siri ularning qaysi manbalar hisobidan shakllanganligini tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmi mintaqalardagi mineral xom ashyo resurslari miqdori, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, bozor infratuzilmasi va ishlab chiqarish jarayonining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Investitsiyalarning tarmoq tuzilishi tahlili ko'rsatishicha, so'nggi yillardagi investitsiya siyosatida asosiy e'tibor transport va aloqa tarmoqlari bilan bog'liq sektorlarni rivojlantirishga qaratildi. 2022 yilda bu tarmoqqa jami investitsiya xajmining 21,3 foizi jalb etilgan. Shuningdek, investitsiya tuzilishida noishlab chiqarish sohasi ulushining yuqoriligiga erishildi. Jami investitsiyalarda noishlab chiqarish sohasi ulushi 31,7 foizni tashkil etdi. Uning 12,9 foizi ta'lim yo'nalishiga, 13,4 foizi uy-joy qurilishiga safarbar qilindi.

Investitsiya faoliyatida asosiy e'tiborni rivojlanish darajasi past bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlariga hamda mintaqalarga qaratish maqsadga muvofiqdir. Aynan maqsadli yo'naltirilgan investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozning chuqur tus olishi dunyodagi barcha davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki iqtisodiyot global sharoitida dunyodagi barcha davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, bu davlatlar iqtisodiyotining bugungi holatiga bevosita bog'liqdir. Bu holatdan chiqib ketish va uning salbiy oqibatlarini tugatish borasida dunyo miqyosida samarali chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish eng muhim dolzarb masalaga aylandi.

Iqtisodiy va moliyaviy inqiroz bevosita rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy siyosatiga ham global o'zgartirishlar kiritilishini talab qiladi. Ushbu holat iqtisodiyotdagi iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi nisbatning optimal miqdorini topishni taqazo etadi. Investitsiya jarayonlarining o'zagi, ya'ni moliyaviy manbai hisoblangan jamg'arma miqdorining o'sishi, iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish, joriy davrda ishlab turganlarini modernizatsiya qilish va buning asosida yangi ish o'rnlari yaratish eng muhim ijtimoiy masala— ishsizlik muammosining oldini olishga zamin yaratadi.

Investitsiya siyosatini amalga oshirish vositalari va usullari investitsiyalarning turli yo'nalishlarda sarflanishi va joylashtirilishini rag'batlantiradi. Investitsiya qo'yilmalarining amaldagi samaradorligi olingan foydaga asoslanib baholanadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining mikdori va o'sish sur'atlari iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalar miqdori va tarkibiga bog'liq. Tahlil etilayotgan davrda yalpi ichki mahsulotning kapital sig'imkorligini aks ettiruvchi samaradorligi ko'rsatkichi 2016 yilda 6,6 ga teng bo'lgan xolda, 2022 yilda 3,7 ni tashkil etdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 2,4 ga teng. Horijiy

investitsiyalar jami investitsiyalarning 2018 yilda 30,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 29,5 foizdan iborat bo'ldi.

Mintaqaviy ishlab chiqarish va u yerda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat mazmun jihatidan mintaqaning innovatsion salohiyatiga bog'liq bo'lib, o'z navbatida mintaqaning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oldindan belgilab beradi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uch manbag'a asoslanishi mumkin:

- ishlab chiqarish omillari (o'sishning ekstensiv turi);
- investitsiyalar (rivojlanishning o'rta darajasi, o'sishning ekstensiv-iqtisodiy turi);
- innovatsiyalar (oliy daraja, iqtisodiy o'sishning intensiv turi).

Har bir mintaqa bir vaqtning o'zida mazkur manbalardan foydalanadi, shu sababli ham, qoida tariqasida ulardan biri ustuvor hisoblanishi sababli, mintaqalarni iqtisodiy o'sish darajasi va sifati bo'yicha tasniflash imkoniyatini beradi. Global raqobat rivojlanishining bugungi sharoitida ijro hokimiyatining ustuvor harakatlari iqtisodiyotni jadal va barqaror o'stirishning innovatsion rivojlanishiga, ilmiy salohiyatning innovatsion faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Mintaqalarning rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, ularning resurs salohiyatiga baho berish va mavjud imkoniyatlardan maksimal foydalanib, aholining turmush darajasini oshirish, ekologik muhitga ta'sir ko'rsatadigan salbiy omillarni minimallashtirish orqali keljak avlodning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish hukumatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2022 yilda Toshkent shahri bo'yicha 3040,0 mlrd so'mlik, Toshkent viloyati bo'yicha 1107,6 mlrd so'mlik, Xorazm viloyati bo'yicha 473,1 mlrd so'mlik, Samarqand viloyati bo'yicha 468,0 mlrd so'mlik va Buxoro viloyati bo'yicha 358,3 mlrd so'mlik investitsiyalar kiritilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDGETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDGET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANТИRISH UCHUN QULAY

ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.

5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.

6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.

7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.

9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.

10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQARISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O 'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.

11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.

12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.

13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.

15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.

16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.

17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.

18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.

19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.

20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalg Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszlosci*, 53, 1231-1237.

22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJYIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalg Qilishda Soliqlarning O'Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.
24. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalg qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
25. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
27. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 167-175.
29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJYIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHIYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.